



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

2026/2



+998335668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





2026

YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI

3-JILD 2-SON



YANGI RENESSANS

ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

3 - JILD, 2 - SON
2026



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

O'zbekistonda kichik biznesga yaratilgan imkoniyatlar**Mirazamov Miraziz Mirakbar o'g'li**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yaratilgan imkoniyatlar yoritilgan. Unda davlat tomonidan berilayotgan soliq imtiyozlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda infratuzilma sharoitlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorligini rag'batlantirish masalalari tahlil qilinadi. Raqamlashtirish va elektron xizmatlarning kichik biznes rivojiga ta'siri ochib beriladi. Maqolada kichik biznesning iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni va ahamiyati xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, soliq imtiyozlari, imtiyozli kredit, startap loyihalar, davlat qo'llab-quvvatlashi, yoshlar tadbirkorligi, xotin-qizlar tadbirkorligi, kichik sanoat zonalari, infratuzilma, raqamlashtirish, elektron xizmatlar, eksport salohiyati, biznes-reja, iqtisodiy taraqqiyot.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kichik biznes iqtisodiyotning muhim bo'g'ini bo'lib, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va ichki bozorni mahsulot hamda xizmatlar bilan ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Shu sababli davlat tomonidan tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Avvalo, soliq tizimida bir qator yengilliklar joriy etilgan. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar uchun soddalashtirilgan soliq tartibi qo'llaniladi. Bu esa tadbirkorlarga faoliyatini erkin boshlash va rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek, ayrim yo'nalishlarda soliq stavkalari pasaytirilgani kichik biznes vakillarini yanada rag'batlantirmoqda.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash ham muhim omillardan biri xisoblanadi. Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratilmoqda, startap loyihalar qo'llab-quvvatlanmoqda. Ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar mavjud bo'lib aholining turli qatlamlariga o'z biznesini boshlash imkonini bermoqda.

Bundan tashqari, tadbirkorlikni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlari soddalashtirilgan. Ko'plab xizmatlar elektron shaklga o'tkazilgan bo'lib, bu vaqt va mablag'ni tejashga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida biznesni yuritish yanada qulay tus olmoqda.

Adabiyotlar sharhi:

Maqolada, O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari (masalan, PF-60) – davlat siyosati asoslaridan, «O'zbekistonda kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik» — ilmiy maqola, oilaviy tadbirkorlik yo'nalishi N.M.Davranova «The Main Directions of Small Business Development in Uzbekistan» — ilmiy maqolasidan, 2022, A.J.Tursunov «Small Business and

«Entrepreneurship Development Stages in Uzbekistan» — tadqiqotdan, K.Umarqulov va B.To'xtasinov «Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi» — tahliliy maqolasidan, D.Niyozmetov «O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi» — statistik tahlilidan, S.Shadmanov va S.Hamroev «Development Directions of Small Business and Private Entrepreneurship in Uzbekistan in Pandemic Conditions» maqolasidan Q.Xudoberganov «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rni» — strategik tahlil, D.Y.Goyibov «Prospects for the Development of Small Business in Uzbekistan» — tahliliy maqolasidan, S.Bakhridinova «Directions for the Development of Small Business and Private Entrepreneurship in Uzbekistan» jurnalidan, A.Asilbekov va M.Ashurov «Innovations as a Factor in the Development of Entrepreneurship» — innovatsion elementlar tahlilidan, O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasi. «O'zbekistonda kichik tadbirkorlik» statistik ma'lumotlardan foydalanilgan.

Kichik biznesga yaratilgan imkoniyatlar va ularning iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni. Bugungi globallashuv davrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik har qanday davlat iqtisodiyotining tayanch ustunlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda kichik biznesni rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki kichik biznes nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki yangi ish o'rinlari yaratadi, aholining daromad manbalarini kengaytiradi va jamiyatda o'rta mulkdorlar sinfini shakllantiradi.

Kichik biznes tushunchasi va uning ahamiyati.

Kichik biznes deganda, odatda, xodimlar soni va yillik aylanmasi nisbatan kam bo'lgan, tez moslashuvchan va bozor talabiga tez javob bera oladigan xo'jalik yurituvchi subyektlar tushuniladi. Ular ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, axborot texnologiyalari kabi turli sohalarda faoliyat yuritadi.

Kichik biznesning asosiy afzalligi — uning moslashuvchanligidir. Yirik korxonalar bilan solishtirganda, kichik biznes vakillari bozor talabidagi o'zgarishlarga tez javob qaytara oladi, yangi g'oyalarni sinab ko'rishda faol bo'ladi va innovatsiyalarni tez joriy etadi. Shu bois ham ular iqtisodiyotning "harakatlantiruvchi kuchi" sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Ushbu tadqiqot kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga yaratilgan imkoniyatlarni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot jarayoni bir necha bosqichlardan iborat bo'ldi.

Tahlil va Natijalar

1. Kichik biznesning iqtisodiy salohiyati

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlari 2025 yil holatiga ko'ra 1,2 milliondan ortiq faol korxonani tashkil etmoqda. Ushbu korxonalar YAIMning 51,5% dan ortiq qismini yaratadi, ya'ni iqtisodiyotning yarmidan ko'pi kichik

biznes orqali shakllanadi. Bu raqamlar kichik biznesning mamlakat iqtisodiy o'sishidagi muhim rolini ko'rsatadi.

Statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, 2025 yilning 9 oyi davomida 62 200 ta yangi kichik biznes subyekti tashkil etilgan, ularning ko'pchiligi savdo, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat boshlagan. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari tomonidan 72,7 trillion so'm investitsiya jalb qilingan, bu esa tadbirkorlik muhitining rivojlanayotganligini tasdiqlaydi.

2. Hududiy taqsimot tahlili

Statistik ko'rsatkichlar hududlar bo'yicha kichik biznes faoliyatini taqqoslash imkonini berdi:

Andijon – 200 000 ta faol korxona bilan yetakchi hudud.

Samarqand – 180 000 ta korxona bilan ikkinchi o'rinda.

Toshkent viloyati – 150 000 ta korxona bilan uchinchi o'rinda.

Boshqa viloyatlar – jami 670 000 ta korxona bilan eng katta umumiy ulushni tashkil qiladi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, kichik biznesning rivojlanishi faqat markaziy hududlarda emas, balki mamlakat bo'ylab keng tarqalgan. Andijon va Samarqandning yetakchi o'rinda bo'lishi asosan qishloq xo'jaligi va savdo yo'nalishlariga bog'liq, Toshkent viloyati esa xizmat ko'rsatish va poytaxtga yaqin hudud sifatida yuqori raqamlarni ko'rsatadi.

3. Davlat siyosati va qo'llab-quvvatlashning natijalari

Davlat tomonidan yaratilgan soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar va infratuzilma yengilliklari tadbirkorlik faoliyatini sezilarli darajada rag'batlantirgan. Shu jumladan:

Kichik biznes subyektlari faoliyatini ro'yxatdan o'tkazish jarayoni soddalashtirildi, ko'plab xizmatlar elektron shaklga o'tkazildi.

Yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorligi uchun maxsus dasturlar orqali grant va kreditlar ajratilmoqda.

Elektron tijorat va ijtimoiy tarmoqlar orqali mahalliy va xalqaro bozorlar bilan bog'lanish imkoniyati ortdi.

Natijada, tadbirkorlar yangi g'oyalarni joriy etishda faol bo'lib, innovatsion va eksport yo'nalishlarida o'sish kuzatilmoqda.

Huquqiy asos va davlat siyosati. Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha mustahkam huquqiy baza yaratilgan. Tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini kafolatlash, tekshiruvlarni tartibga solish, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha qator qonunlar va qarorlar qabul qilingan.

Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri – “tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali kambag'allikni qisqartirish” tamoyilidir. Bu borada hududlarda kichik sanoat zonalarini tashkil etilmoqda, infratuzilma bilan ta'minlangan yer maydonlari ajratilmoqda, kommunikatsiya tarmoqlari (elektr, gaz, suv) tortib

berilmoqda. Natijada tadbirkor o'z mablag'ini asosan ishlab chiqarish jarayoniga yo'naltirish imkoniga ega bo'lmoqda.

Soliq imtiyozlari va moliyaviy yangilliklar

Kichik biznesni rivojlantirishda soliq siyosati muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda soliq stavkalarining maqbullashtirilishi, soddalashtirilgan soliq tizimining joriy etilishi tadbirkorlar zimmasidagi yukni sezilarli darajada kamaytirdi. Yangi tashkil etilgan korxonalar uchun ma'lum muddat davomida soliq imtiyozlari berilishi ularni rasmiy faoliyat yuritishga undaydi.

Shuningdek, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ham kengaytirilgan. Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish, foiz stavkalarining bir qismini subsidiya qilish, kafillik jamg'armalari orqali kredit olishni osonlashtirish kabi choralar kichik biznes subyektlariga katta yordam bermoqda. Ayniqsa, startap loyihalarni moliyalashtirish tizimining yo'lga qo'yilishi innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish imkonini bermoqda.

Yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash. Kichik biznes sohasida yoshlar va xotin-qizlar faolligini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Maxsus dasturlar orqali ularga imtiyozli kreditlar, grantlar, bepul o'quv kurslari taklif etilmoqda. Bu esa jamiyatning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini iqtisodiy faollikka jalb qilishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Yosh tadbirkorlar uchun biznesni rejalashtirish, marketing, moliyaviy boshqaruv bo'yicha treninglar tashkil etilishi ularning bilim va ko'nikmalarini oshirishga yordam bermoqda. Xotin-qizlar uchun esa uy sharoitida biznes yuritish, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish sohalarida loyihalar qo'llab-quvvatlanmoqda. Natijada oilaviy tadbirkorlik rivojlanib, oilalarning daromadi ortmoqda.

Raqamlashtirish va elektron xizmatlar

Zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish, soliq hisobotlarini topshirish, litsenziya va ruxsatnomalar olish jarayonlarining elektron shaklga o'tkazilishi ortiqcha vaqt va mablag' sarfini kamaytirdi.

Elektron tijorat (e-commerce) rivojlanishi ham kichik biznes uchun keng bozor yaratdi. Endilikda tadbirkor o'z mahsulotini nafaqat mahalliy, balki xalqaro bozorda ham internet orqali sotishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar marketing vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda. Bu esa reklama xarajatlarini kamaytirib, mijozlar bilan bevosita aloqa o'rnatish imkonini beradi.

Kichik sanoat zonalari va infratuzilma. Hududlarda tashkil etilayotgan kichik sanoat zonalari tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday zonalarida ishlab chiqarish uchun tayyor bino va yer maydonlari, zarur kommunikatsiya tarmoqlari mavjud bo'ladi. Tadbirkor esa ortiqcha tashkiliy muammolarsiz o'z faoliyatini yo'lga qo'yishi mumkin.

Bundan tashqari, logistika markazlari, ulgurji savdo bazalari, eksportni qo'llab-quvvatlash markazlari tashkil etilishi mahsulotni ichki va tashqi bozorga chiqarishni osonlashtirmoqda. Eksport qiluvchi kichik korxonalarga bojxona tartib-

taomillarini soddalashtirish, sertifikatlash jarayonlarini tezlashtirish kabi yengilliklar berilmoqda.

Eksport salohiyatini oshirish

Kichik biznes subyektlari uchun eksport faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatlari ham kengaymoqda. Mahsulotni xorijiy bozorlarga chiqarish orqali korxonalar daromadi oshirilmoqda. Davlat tomonidan eksport qiluvchilarga transport xarajatlarining bir qismini qoplab berish, ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirok etish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

Bu esa mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga, "Made in Uzbekistan" brendini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, oziq-ovqat sanoati va hunarmandchilik yo'nalishlarida kichik biznesning eksport ulushi ortib bormoqda hamda yurtimizga vlyuta oqimi kirib kelmoqda.

Muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari. Yaratilayotgan keng imkoniyatlarga qaramay, kichik biznes vakillari ayrim muammolarga ham duch kelmoqda. Jumladan, boshlang'ich kapital yetishmasligi, bozorni chuqur o'rganmaslik, tajriba va bilimning kamligi, marketing soxasi yaxshi rivojlanmaganligi, raqobatning kuchayishi kabi omillar faoliyat samaradorligiga ta'sir qilishi mumkin.

Shu sababli tadbirkorlar doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, biznes-reja tuzishni puxta o'rganishi, marketing tadqiqotlariga e'tibor qaratishi zarur. Davlat organlari esa ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashi, tadbirkorlar bilan muloqotni kuchaytirishi lozim. O'zaro hamkorlik va ishonch muhitining mustahkamlanishi kichik biznesning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kichik biznesni rivojlantirish uchun yaratilgan imkoniyatlar mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omilidir. Soliq imtiyozlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, raqamlashtirish, infratuzilmaning yaxshilanishi, yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorligini rag'batlantirish kabi chora-tadbirlar natijasida tadbirkorlik muhiti sezilarli darajada yaxshilanmoqda.

Kichik biznes – bu faqat daromad manbai emas, balki tashabbus, innovatsiya va mehnatsevarlik timsolidir. Har bir fuqaro mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanib, o'z biznesini yo'lga qo'yishi orqali nafaqat o'z farovonligini, balki jamiyat va mamlakat taraqqiyotini ham ta'minlashga hissa qo'shishi mumkin. Shu bois kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va uni yanada rivojlantirish kelajak taraqqiyotining muhim kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 19-martda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, yangi bozorlarga kirib borish va eksportni oshirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida so'z yuritgan. <https://surl.li/ylyplj>

2. <https://lex.uz/ru/docs/-4954642>

3. www.namdu.uz

4. www.ziyonet.uz